

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-YANVAR

ANDIJON, 2024

O‘ZBEKISTONDA VA XORIJDA MONOPOLIYAGA QARSHI TARTIBGA SOLISH

Mingboyev Asqar Qandaharich

Annotatsiya: Mazkur maqolada monopoliya haqida va uning salbiy, ijobiy tomonlari bo‘yicha muallif tomonidan o‘rganishlar olib borilgan hamda ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek O‘zbekistonda va xorijda monopoliyaga qarshi siyosat va O‘zbekiston iqtisodiyotida raqobat muhitini rivojlantirish haqida so‘z yuritiladi. Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiy muhitida raqobatni rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirishda davlat rahbarimiz va boshqa mutasaddi tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan ishlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Monopoliya, raqobat, bozor iqtisodiyoti, Sherman qonuni, Monopoliyaga qarshi siyosat, Federal savdo komissiyasi

Abstract: In this article, the author conducted research on monopoly and its negative and positive aspects, and developed scientific and practical suggestions and recommendations. Also, the anti-monopoly policy in Uzbekistan and abroad and the development of the competitive environment in the economy of Uzbekistan are discussed. Today, information is presented about the work done by our head of state and other official organizations in the development of competition and increasing competitiveness in the economic environment of our country.

Key words: Monopoly, competition, market economy, Sherman Act, Antimonopoly policy, Federal Trade Commission

Kirish

Har bir davlatning iqtisodiyotida raqobatni shakllantirish, uni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish manfaatlaridan kelib chiqqan holda harakat qilishga qaramay, har qanday milliy iqtisodiyotda u yoki bu darajada bozorda monopoliya ham mavjud bo‘lishi mumkin. Bu ilmiy yondashuvlarda raqobatni shakllantirish ko‘plab iqtisodchi olimlar tomonidan bozorni tashkil etishning eng samarali shakli deb hisoblangan. lekin mukammal raqobat shakllantirish murakkab masala hisoblanadi. Bozorni tashkil etishda demak, “monopoliya”, “raqobat” yoki “sof monopoliya”, “mukammal raqobat” kategoriyalari shakllanadi hamda ularni o‘rganish zarurati yuzaga keladi. Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida monopoliyaga qarshi qonunlarni qabul qilish va hayotga tadbqiq etish xayotiy zaruriyatdir. Chunki, bozorni rivojlanishiga va doimiy taraqqiy etishiga erkin raqobatgina asos bo‘la oladi.

Asosiy qism.

Monopoliya haqida so‘z yuritishdan avval bu so‘zning asl ma’nosiga e’tiborimizni qaratsak, Monopoliya yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, “monos” yakka, tanho “poleos” sotaman degan ma’nolarni anglatadi. Demak, monopoliya bozorda yakka sotaman degan ma’noni berar ekan. Monopoliya bozor tushunchalari bilan bog‘liqdir. Monopol bozor bu tanho yoki ozchilik ishlab chiqaruvchilar yoki iste’molchilarning hukmronligi, ya’ni hokimiyati mavjud bozordir. Bu holatda narxni shakllantiruvchi omillar cheklangan holda amal qiladi. Monopoliyaning sof monopoliya, oligopoliya va monosopiya kabi turlarini bozorni qamrab olish darajasiga qarab ajratishimiz mumkin.

Sof monopoliya bozorida yakka hokim birgina firma yoki korxon bo‘lib, tovar taklifini bozorga faqatgina u beradi. Narxni ham yakka o‘zi belgilaydi. Oligopoliyada esa bozorda bir nechta yirik ishlab chiqaruvchi kompaniya yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi hukmronliklari tushuniladi.

Monosopiya-bu tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi kompaniya yoki sotuvchilar sonining ko‘p bo‘lishi, ular tovar yoki xizmatlarining yagona iste’molchisi yoki xaridori mavjud bo‘lgan sharoitdagi yakka hukmronlik holatidir.

ILM FAN YANGILIKLARI

KONFERENSIYASI

30-YANVAR

ANDIJON, 2024

Monopoliyalar iqtisodiy resurslarning yuqori darajadagi konsentratsiyasi tufayli texnologik taraqqiyotni tezlashtirish uchun imkoniyatlar yaratadi. Biroq, bu imkoniyatlar bunday tezlashtirish yuqori daromad olish uchun qulay bo'lgan hollarda amalga oshiriladi. Ayrim iqtisodchilar sezilarli kuchga ega bo'lgan yirik firmalar iqtisodiyotda ma'qul, chunki ular texnologik o'zgarishlarni tezlashtiradi, chunki monopol hokimiyatga ega bo'lgan firmalar o'zlarining monopol daromadlarini monopol hokimiyatini himoya qilish yoki mustahkamlash uchun tadqiqotlarga sarflashlari mumkin.

Tadqiqot olib borish orqali ular o'zlariga va umuman jamiyatga foyda keltiradi. Ammo monopoliyalar texnologik taraqqiyotni tezlashtirishda ayniqsa muhim rol o'ynashi haqida ishonchli dalillar yo'q, chunki monopoliyalar ularning foydasiga tahdid soladigan bo'lsa, texnologik taraqqiyotni rivojlanishini kechiktirishi mumkin.

Monopoliyaning ob'ektiv asoslari - bu xo'jalik yurituvchi sub'ektning bozordagi ustun mavqei bo'lib, u raqobatga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishga imkon beradi, ishlab chiqarish hajmini nazariy jihatdan mumkin bo'lgan darajaga nisbatan haddan tashqari oshirib yuboradi va kamaytiradi va boshqa biznes uchun bozorga kirishga to'sqinlik qiladi. sub'ektlar. Oxir oqibat, bu monopolistga samarali talabni o'z foydasiga qayta taqsimlash, monopol yuqori foyda olish imkonini beradi. Raqobatbardosh bozorlar odatda yaxshi ishlaydi, bu xaridorlar ham, sotuvchilar ham narxlarni boshqarishi mumkin bo'lgan bozorlarga tegishli emas. Bitta sotuvchi ta'minotni nazorat qiladigan bozorda mahsulot past bo'ladi va narxlar yuqori bo'ladi

Davlatning monopoliyalarga qarshi siyosati milliy iqtisodiyotida raqobat oddindan shakllanib bo'lgan mamlakatlarda raqobatchilik muhitini takomillashtirishga, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda esa bu muhitni shakllantirishga qaratilgan.

Monopoliyaga qarshi siyosat bu - davlatning monopoliyaga qarshi kurash siyosati. Dunyo tajribasiga ko'ra, Monopoliyaga qarshi qonunchilik, asosan, quyidagi yo'nalishlar bo'yicha shakllandi. Birinchidan, ishlab chiqarish (tarmoq)ni boshqaruvchi qonunlar. Bu qonunlarga binoan, odatda, hech bir korxonalar (korporatsiya)ning biror turdagi mahsulot ishlab chiqarishning yarmidan ortig'ini nazorat qilishga huquq berilmaydi. Ikkinchidan, barcha yirik korporatsiyalar ishtirokchilari boshqa korporatsiyalar aksiyalarining ma'lum cheklangan miqdoridan ortig'iga ega bo'la olmasligi belgilab qo'yiladi. Uchinchidan, narxlarni bozor muvozanati belgilagan darajadan yuqori yoki past turishini, narx ustidan kelishib olishni taqiqlovchi kartellarta qarshi qonunlar joriy qilinadi. Davlatning monopoliyalarga qarshi siyosati milliy iqtisodiyotida raqobat oddindan shakllanib bo'lgan mamlakatlarda raqobatchilik muhitini takomillashtirishga, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda esa bu muhitni shakllantirishga qaratilgan. Bozorda monopoliyani o'rnatishga urinishlar va monopol mavqeni suiiste'mol qilishni taqikdaydigan trestlarga qarshi birinchi qonun - Sherman qonuni AQShda 1890-yilda qabul qilingan. Monopoliyaga qarshi qonunchilikq. va uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan choratadbirlar har bir mamlakatda sharoit taqozo etgan shakllarda amal qiladi. Rivojlangan barcha davlatlarda sog'lom raqobat muhitini himoya qilish maqsadida turli ko'rinishdagi, monopolistik foaliyatlar ustidan davlat tomonidan tartibga solish amalga oshiriladi. Masalan, AQShda monopoliyaga qarshi davlat siyosati - Federal savdo komissiyasi va Adliya departamentining trestlarga qarshi boshqarmasi, Rossiyada - Monopoliyaga qarshi siyosat va tadbirkorlikni qo'llabquvvatlash vazirligi, Yaponiya va Janubiy Koreyada - Halol raqobat bo'yicha komissiya, Yevropa Ittifoqida esa - Raqobat bo'yicha komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekistonda bozor munosabatlari rivojlanishi bosqichma-bosqich davlarga mos ravishda monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirishda davlat tomonidan ko'maklar berish, qonunlar ishlab chiqish va ular asosida maqsadli strategiyalarni tizimli amalga oshirilmoqda.

Davlatning asosiy vazifasi - resurslardan foydalanish samaradorligiga, shuningdek, davlat boshqaruvining samaradorligiga erishishdan iborat. Buning uchun esa sog'lom raqobat muhitini

ILM FAN YANGILIKLARI

KONFERENSIYASI

30-YANVAR

ANDIJON, 2024

yaratish zarur. Raqobat muhitini shakllantirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish vazifasi davlatning tartibga soluvchi funksiyalari alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston davlatining raqobatchilik muhitini shakllantirishga qaratilgan siyosatida xususiylashtirish, davlat mulki hisobidan mulkchilikning boshqa shakllarini vujudga keltirish asosiy o‘rin tutadi. Xususiylashtirish natijasida, birinchidan, mulk o‘z egalari qo‘liga to‘shirilsa, ikkinchidan, ko‘p ukladli iqtisodiyot va raqobatchilik muhiti vujudga keladi. Shu bilan bir qatorda, davlatning raqobat siyosatini amalga oshirish vakolati berilgan monopoliyaga qarshi davlat organi ham institutsional tarafdin mustahkamlanib bordi.

– 1992 yil 2 iyul – “Monopolistik faoliyatni cheklash to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi va O‘zbekistonda raqobat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish boshlandi;

– 1992 yil – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tarkibida Monopoliyaga qarshi va narx siyosati Bosh boshqarmasi tashkil etildi;

– 1996 yil – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo‘mitasi tashkil etildi;

– 2000 yil – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga muvofiq monopoliyaga qarshi organ

Moliya vazirligi tarkibidan chiqarildi, unga davlat qo‘mitasi maqomi berilib, Respublikada monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirish vakolati berildi;

– 2005 yil – raqobat, kichik va xususiylashtirishni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash maqsadida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga muvofiq monopoliyaga qarshi organ qayta tashkil etildi va unga yangi aholatlar berildi. Qo‘mitaga yangi nom berildi – O‘zbekiston Respublikasi monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasi.

– 2010 yil - Monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solishni yanada kuchaytirish va sog‘lom raqobat muhini yaratish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Farmoniga muvofiq monopoliyaga qarshi organ qayta tashkil etildi.

– Monopoliya subyektlari faoliyati ustidan nazorat olib borishdan maqsad bu sohada samarali davlat siyosatini olib borishdir. Respublikamizda monopoliyaga qarshi kurashish va raqobat muhitini rivojlantirishga doir chora-tadbirlar doimiy ravishda amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 24-yanvarda «O‘zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi PQ-4126-sonli Qarori qabul qilingan. Ushbu qarorda O‘zbekiston Respublikasi “Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi” faoliyati tashkil etilib, qo‘mitaning tashkiliy tuzilmasi tasdiqlangan.

– Raqobat muhitini vujudga keltirishda davlat tomonidan monopoliyaga qarshi siyosat olib borilishi, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilishi, bu yo‘nalishda qonunchilik bazasi yaratilish maqsadida 2023 yil 3 iyul kuni «Raqobat to‘g‘risida»gi qonun [O‘RQ-850-son] yangi tahrirda qabul qilindi. Ushbu Qonun bilan amalda bo‘lgan «Raqobat to‘g‘risida»gi (2012-yil) va «Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida»gi (1999-yil) qonunlar birlashtirildi. Qonun bilan raqobat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilandi. Qonunga ko‘ra, Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi raqobat sohasidagi vakolatli davlat organi (monopoliyaga qarshi organ) hisoblanadi.

Ushbu Qonunning maqsadi tovar yoki moliya bozorlarida raqobatning cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste‘molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlarni nazorat qilishni amalga oshirish hamda ularga chek qo‘yish bilan bog‘liq bo‘lgan, raqobat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-YANVAR

ANDIJON, 2024

Bir soʻz bilan aytganda, bir paytning oʻzida raqobatga keng yoʻl ochish va monopoliyani imkon qadar qisqartirish yaxshi samara beradi. Mamlakatimizda ham keyingi yillarda bu masalaga jiddiy eʼtibor qaratilmoqda.

Xulosa

Shuni alohida taʼkidlash joiz, bugungi kunda respublikamizning iqtisodiy oʻsishini taʼminlash, milliy iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshirish, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish jarayonlarini chuqurlashtirish, investitsiyalarni jalb qilishga doir keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga chet el kapitalidan foydalangan holda yangi texnologiyalar jalb qilinmoqda.

Bugungi kundagi eng asosiy maqsad bu Jahon Savdo Tashkilotiga aʼzo boʻlishdir. Ushbu tashkilotning belgilangan meʼyorlarini bajarish uchun prezidentimiz tomonidan mamlakat iqtisodiyotida tubdan oʻzgartirishlar olib borilmoqda. Mamlakatimizga istiqbolli investitsiyalar kiritilmoqda. Bundan tashqari, bugungi kunda mamlakatda kommunal xizmatlarning sifatini yanada yaxshilash maqsadida ushbu sohani ham xususiy lashtirish loyihalari ishlab chiqilmoqda. Bir soʻz bilan aytganda mamlakat iqtisodiyotini yanada raqobatbardosh qilish, uni turli xil risklarga chidamli qilish hozirgi oʻzbek iqtisodchi-menedjerlarining eng asosiy vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "Oʻzbekiston" NMIU, 2017. - 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qatʼiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak. - Toshkent: "Oʻzbekiston" NMIU, 2017. - 104 b.
3. Mirziyoev Sh.M. [Erkin va farovon](#), demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: "Oʻzbekiston" NMIU, 2017. - 56 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taʼminlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: "Oʻzbekiston" NMIU, 2017. - 48 b.
5. Oʻzbekiston Respublikasining 2023-yil 3-iyulda yangi tahrirdagi "Raqobat toʻgʻrisida"gi OʻRQ-850-son Qonuni.
6. N.Q. Yoʻldoshev Strategik menejment. Oʻquv qoʻllanma 2010.-305b.
7. J.Jalolov, I.Hotamov, I.Ahmedov "Zamonaviy tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari", TDIU, [-Toshkent](#), 2008, - 270 b.
8. Soliev A., Buzruksxonov S. [Marketing](#), Bozorshunoslik. Darslik. -T.: [Iqtisod- Moliya](#), 2010.- 424 b.
9. Stephen P. Robbins., Mary Coulter. "Management" 2012.672p
10. Philip Kotler., Gari Armstrong. "Prinsiples of marketing"2014.719p
11. Besanko, Dranove, Shanley, and Schaefer. Economics of Strategy (Wiley), The 7th Edition, John Wiley & Sons, Inc. 2016.
12. Maykl Porter. Konkurentnaya strategiya. Metodika analiza otrasley i konkurentov. –M.: "Alʼpina Biznes", - 2017.
13. Mejdunarodnaya konkurentsia: Konkurentnoe preimustestva stran. Maykl Porter. Per. S angl. Izd. M.: Alʼpina Pablsher, 2017. 947 str.
14. Claude Diderich. Design Thinking for Strategy: Innovating Towards Competitive Advantage. – Springer Nature Switzerland AG 2020.
15. Robert M. Grant. Contemporary Strategy Analysis (Wiley), The 9th Edition, John Wiley & Sons, Inc. 2016.
16. www.gov.uz – Oʻzbekiston Respublikasi xukumat portali.
17. www.lex.uz – Oʻzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi
18. <https://raqobat.gov.uz/uzb/>